

“TUG‘ILISH” ROMANIDA XARAKTERLAR TALQINI**Ahmadjonova Oqilaxon Abdumalikovna***FarDU, adabiyoshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.**[Tel: 998916575562 aoqila@list.ru](mailto:aoqila@list.ru)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijodkor Asqad Muxtorning “Tug‘ilish” romanidagi obrazlarning xarakter va ruhiy dunyosining mushtarak va farqli jihatlari tahlilga tortiladi. Asqad Muxtor adabiyotga XX asrning 40-yillarida kirib kelgan ijodkor hisoblanadi. Ma’lumki, bu davr sho‘ro siyosati ayni avj pallaga kirgan va har sohaga, jumladan badiiy adabiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan davr edi. Shu bois qo‘liga qalam tutgan har bir ijodkor oldida asarlarida, eng avvalo, kommunistik mafkurani ulug‘lash, uni jamiyat ongiga chuqur singdirish vazifasi turar edi. Ammo shunga qaramay jamiyatning rang-barang, serqirra hayoti, atrofda kechayotgan har bir voqea-hodisa, ijtimoiy muammolarni sinchkovlik bilan kuzatgan yozuvchi, ularni bir qancha yorqin obraz va xarakterlar misolida ma’lum g‘oyaga yo‘naltirgan. Uning ana shunday asarlaridan biri “Tug‘ilish” romanida ulkan insoniy fazilatlarni o‘ziga singdirgan o‘nlab fidoyi insonlar obrazlari yaratilgan.*

INTERPRETATION OF CHARACTERS IN THE NOVEL "BIRTH".

Annotation: *This article analyzes the commonalities and differences between the character and the spiritual world of the characters in Askad Mukhtor's novel Birth. Askad Mukhtor is a writer who entered the literature in the 40s of the XX century. It is known that this period was the period when the Soviet policy was at its peak and had an impact on all spheres, including fiction. Therefore, every artist with a pen in his hand had the task, first of all, to glorify the communist ideology in his works, to inculcate it in the public consciousness. Nevertheless, the writer, who carefully observes the colorful, multifaceted life of the society, every event that takes place around him, and the social problems, directs them to a certain idea through the example of a number of vivid images and characters. One such work, Birth, features dozens of selfless individuals who embodied great human qualities.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПЕРСОНАЖЕЙ РОМАНА «РОЖДЕНИЕ»

Аннотация: *В данной статье анализируются общие и разные стороны характера и духовного мира героев романа «Рождение» создателя Аскада Мухтара. Аскад Мухтар – писатель, вошедший в литературу в 40-х годах 20 века. Известно, что этот период был периодом, когда советская политика достигла своего расцвета и оказала влияние на все области, в том числе и на художественную. Поэтому перед каждым художником, взявшим в руки перо, стояла задача прославить в своих произведениях коммунистическую идеологию и глубоко внедрить ее в сознание общества. Тем не менее, писатель внимательно наблюдал за красочной*

и красочной жизнью общества, за каждым событием и социальными проблемами, происходящими вокруг него, и на примере ряда ярких образов и персонажей направлял их к определенной идее. В одном из его произведений, романе «Рождение», созданы десятки самоотверженных людей, впитавших в себя великие человеческие качества.

Key words and phrases: *image, character, idea, community, leader, love*

Tayanch so‘z va iboralar: *obraz, xarakter, g‘oya, jamoa, tasvir, rahbar, muhabbat*

Ключевые слова и фразы: *имидж, характер, идея, коллектив, имидж, лидер, любовь.*

Ma'lumki, sho'ro davri adabiyotida ko'pincha yakka shaxsning emas, jamoaning shakllanish va o'sish jarayoni, turli qiyinchilik va kurashlar davomida birlashib, tarbiyalovchi va yaratuvchi kuchga aylanib borishini ochib berish muhim sanalar edi. Asqad Muxtorning «Tug'ilish» romanida ham qurilishda mehnat qilayotgan ana shunday kollektiv – jamoa haqida so'z boradi. Ammo har qanday jamoa alohida olingan shaxslardan tarkib topadi, shuning uchun adib voqealar davomida o'zi tasvirlayotgan jamoaning deyarli har bir a'zosiga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlarni ochib boradi. Kitobxon asar mutolaasi jarayonida yoshlarni birlashtirib turuvchi maqsadni va, aksincha, oralariga rahna solayotgan ayrim illatlarni anglay boshlaydi. Ayniqsa, o'sha davr muammolaridan biri – ayrim rahbarlarning faqat reja ortidan quvish, uning bajarilishida jonbozlik ko'rsatayotgan insonlar, ularning orzu-umidlari, qiziqishlari, turmush tarzi, bir so'z bilan aytganda hayoti bilan qiziqmaslik, oddiy ishchilarga faqat rahbarlar buyrug'ini bajaruvchi bir mashina sifatida munosabatda bo'lish kabi illatlar ochib tashlanadi. Shu jihatdan qaraganda, «Tug'ilish» romanida adib jamiyatda ildiz otayotgan illatlar va ularning asl sabablarini ochishda o'ziga xos bir jasorat ko'rsata olganligini ham e'tirof etish kerak. «Tug'ilish» romanidagi xarakterlardan biri Luqmoncha (Rahim Luqmonov) obrazi sanaladi. Bu yigit o'zi jismonan unchalik katta kuchga ega bo'lmasa-da, ma'naviy jihatdan boshqalardan ancha ustunlikka egaligi bilan alohida ajralib turadi. U o'zining tirishqoqligi, kamtarligi, xushfe'lligi, odamparvarligi, donoligi va bilimdonligi bilan do'stlari orasida, jamoada hurmat-e'tibor qozongan yoshlardan biri. Luqmoncha o'z davrining farzandi sifatida o'zi mansub bo'lgan jamiyatning siyosiy qarashlariga ham chin dildan e'tiqod qiladi. U hatto yong'in paytida o'z jonini xatarga qo'yib bo'lsa-da, komsomol билетini saqlab qolishga intilishi buning yorqin misoli bo'la oladi. Lekin uning hurmati faqat o'zi a'zo bo'lgan siyosiy tashkilotgagina qaratilgan emas. U qurilishdagi o'z do'stlarini, oddiy quruvchi insonlarni ham jon-dilidan sevadi. Zarur paytda ularning hayotini saqlab qolish uchun o'z jonini ham fido qiladi. U qurilishda ishchilar hayoti uchun xavfli vaziyat yuzaga kelganda, ko'ra-bila turib o'z hayotini xavf ostiga qo'yadi, lekin do'stlarining o'sha vaziyatdan eson-omon chiqib ketishlarini ta'minlaydi. Bu fidoyilik natijasida u davosiz dardga duchor bo'ladi va halok bo'ladi. Shunisi borki, bunday bo'lishini u oldindan, bu ishga chog'langan paytdayoq anglab yetgan edi.

Adib Luqmoncha timsolida yuksak insoniy fazilatlardan biri bo'lgan muhabbat va sadoqatni ham ulug'laydi. Romanda ma'naviy poklik, insonga mehr, muhabbatga sadoqat

uning xarakteriga xos qirralardan biri sifatida o'z yorqin ifodasini topgan. Sadbarga bo'lgan haqiqiy muhabbati hatto o'lim to'shagida yotgan paytida ham o'zini emas, sevimli yorini o'ylashi, uni xatolardan saqlash, isnodga qo'ymaslikka urishnishi Luqmoncha obrazining pafosi sifatida talqin etiladi. Asarda muhabbat uchligi sifatida berilgan bu ziddiyat Luqmoncha – Sadbar – Xoldor orasida kechadi. Luqmonchanning muhabbati samimiy insoniy munosabatlarga qurilgan. Uning Sadbarga bo'lgan sevgisi pok va ezgu muhabbatdir. Uning nazarida muhabbat shunchaki bir intilish emas, u inson hayotining eng zarur va mustahkam ustunidir. Luqmonchanning Sadbarga munosabati ana shu tuyg'ular asosiga qurilgan. Ammo hayotda hamisha insonning barcha orzu-umidlari amalga oshavermaydi. Muhabbatda ham shunday. Sadbar adashadi, u o'zini telbalarcha sevadigan Luqmonchaga emas, balki unga bir ko'ngilxushlik manbai sifatida qaraydigan Xoldorga ko'ngil qo'yadi. Sadbar Xoldor haqidagi xayollarining sarob ekanligini, uning munosabatlari zamirida egri niyat yashirin ekanligini payqamaydi, natijada uning muhabbati poymol bo'ladi. Uning yuragini xiyonat atalmish bir yovuzlik qiymalaydi. Xoldorning soxta muhabbati (agar uni muhabbat deb atash to'g'ri bo'lsa) Sadbarni qon qaqshatadi, isnodga qo'yadi. U Sadbarni homiladorlik paytida tashlab ketadi. Mana shu o'rinda Luqmonchaga xos yana bir fazilat – har qanday vaziyatda ham o'z muhabbatiga sodiq qolish, sevgilisini inson sifatida ardoqlash namoyon bo'ladi.

“ – Men faqat sizni yaxshi ko'raman. Farzand o'zimizniki bo'lsin. Hammaga shunday deng.

Nahotki! Sadbar o'z kelajagidan cho'chib, ruhi ezilib bitgan edi. U odamlardan qo'rqar edi, chunki nazarida odamlar, ochiq bo'lmasa yashirin, hozir bo'lmasa keyin, unga baribir nafrat bilan qarashlari kerak edi. Hozir esa birinchi marta o'z gavdasiga jilmayib boqdi” (Muxtor A., 1972, B.223). U Xoldor tomonidan rad etilgan Sadbarni bolasi bilan o'z bag'riga oladi. Albatta, bunday fidoyilikka har qanday yigit ham qodir bo'lavermaydi. Inson taqdiriga befarq bo'lmaslik, uning baxt-u saodati uchun kurashish, bu yo'lda o'zini ham fido qilishgacha borish Luqmoncha xarakterining eng muhim qirralaridan biri sanaladi.

Asqad Muxtor romanda rahbar xodimlar xarakteriga xos xususiyatlarning ochib berishga ham alohida e'tibor qaratadi. Uning qahramonlaridan dunyoqarashi va qo'l ostidagilarga munosabatiga ko'ra bir-biridan keskin farqlanib turuvchi rahbarlar: Elchibek Bo'riev va Subhonqul Rahmonqulov obrazlari ham berilgan. Asarda bu ikki rahbar ikki qarama-qarshi qutbda turuvchi xarakterlar sifatida talqin etiladi. Yozuvchi o'zining idealidagi rahbar xodim haqidagi g'oyaviy maqsadini ular orasidagi ziddiyatlarda namoyon etib boradi.

Adib Elchibek Bo'riyev obraziga haqiqiy rahbarlarga xos fazilatlar: insoniylik, tashkilotchilik, ishchilarga nisbatan g'amxo'rlik, do'stona munosabatda bo'lish, ularni birlashtira olish, qo'l ostidagi har bir kishining ruhiyati, shaxsiy hayoti, orzu-istaklari, ichki dunyosini o'rganish va shunga yarasha munosabatda bo'lish, ularni maqsad sari dadil boshlab bora olish qobiliyatlarini mujassamlashtirgan. Aksincha, Subhonqul Rahmonqulov timsolida qog'ozbozlikni xush ko'ruvchi byurokrat va rasmiyatchi, u o'zini ommadan yuqori qo'yishga odatlanib qolgan, qurilish rahbari sifatida ishga kelayotgan yoshlarning hayoti bilan umuan qiziqmaydi, ularning ko'pchiligini tanimaydi ham, chunki ko'pincha

ular bilan suhbatlashib ko‘rishni o‘ziga ep ko‘rmaydi, faqat buyruq berish va qilingan ishlar yuzasidan hisobot qabul qilib olish bilan o‘z vazifasini ado qilgan deb hisoblaydigan rahbarlar xilidan. Uni yoshlarning orzu-istaklari, ruhiy kechinmalari, hayot tarzi, ularga yaratilgan sharoit va muhit umuman qiziqitirmaydi. Uning birgina tashvishi reja bajarilishi, boshqasi ikkinchi darajali. Elchibek Bo‘riev bilan kechgan ziddiyatlarda uning xarakteridagi shaxsiyatparastlik, manfaatparastlik, mansabparastlik, quruq haybarakallachilik kabi illatlari ochila boradi, u o‘zining bu kamchiliklarini soxta ishchanlik, davlat rejasini tezroq bajarish hamda soxta vatanparvarlik kabilar bilan xaspo‘shlashga urinsa-da, voqealar rivoji davomida uning bu illatlari yanada yorqinroq ochilib boradi. Asqad Muxtor bu xarakter tanazzulida o‘zining yuksak insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surishga harakat qiladi. Uning ezgu maqsadlaridan biri insonga insoniy munosabatda bo‘lish, uni bir mashina sifatida, hissiz, tuyg‘usiz faqat buyruqni bajaruvchi narsa sifatida ko‘rmaslikni ta’kidlash edi.

«Tug‘ilish» romanida yozuvchi ideali konfliktning rivojida, ayniqsa, uning yuqori bosqichlarida mujassamlashadi. Rahbar bilan xalq ommasining birligi, rahbarlikda insonparvarlik – yozuvchi ideali bosh konfliktning ikkinchi yuqori bosqichida ta’sirli ifodalanganligini ko‘ramiz. Konflikt rivojidagi birinchi kulminatsiya – Sozliqsoy ko‘prigi masalasida Bo‘riev taklifi qabul qilingan, qurilishda ilg‘or kuchlar g‘alaba qozongan edi. Yozuvchi Luqmonchanning o‘limi voqeasi orqali dastlab hal etilganday bo‘lib tuyulgan asosiy konfliktni yana davom ettiradi. Luqmoncha o‘limiga gunohkor, deb ayblangan Bo‘riev ishdan bo‘shatilgach, butun kollektiv uni himoya qilib chiqadi, Rahmonqulov, hatto, o‘z tarafdori, deb hisoblagan Pochchaevni ham Bo‘riev himoyachilari orasida ko‘rib qattiq ta’sirlanadi» (Tog‘ayev O., 1978, B. 234.).

Asqad Muxtor ijodining muhim xususiyatlaridan biri shuki, roman yozilgan davr ijtimoiy-siyosiy hayotining eng muhim qirralarini o‘zida mujassam etgan bu mulohazalar, rahbar qiyofasi va ichki dunyosiga taalluqli fikrlarni, yoshlar hayotining o‘ziga xos jihatlari talqinini zamon va makon bilan chegaralab bo‘lmaydi. Har bir davrda rahbarlarning yuqorida ta’kidlangan illatlardan xoli bo‘lishi, haqiqiy rahbarlik salohiyatiga ega bo‘lishi mehnat ahlining hurmatini qozonishiga, mehnatni zavq-shavq manbaiga aylanishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Solijonov Y. Ko‘zgdagi hayot. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2013 y.
2. O.Tog‘ayev. Kurash va qahramon. T., G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at. 1970 y.
3. Muxtor A. Tug‘ilish. –T.: O‘zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti. 1963 y.
4. Akhmadjonova, O. A. (2021). Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar”. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 389-392.
5. Oripova, G. M., Akhmadjonova, O. A., Kholmatov, O. U. U., & Muminova, T. S. (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 304-309.

REFERENS:

1. Jo'rayev, H. A., & qizi Maxamadjonova, S. R. (2022). SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA AFORIZMLAR. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(7), 452-454.
2. Dehqonova, Maxsuma, & Qosimov, Iqboljon (2022). OYBEK DOSTONLARIDA MAVZULAR XILMA-XILLIGI VA OBRAZLAR TASVIRI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 317-322.
3. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. Theoretical & Applied Science, (2), 13-17.
4. Axronkulovna, J. M. (2018). Feelings of Artistic Expressions and Admittances. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(6), 80-83.
5. Axronkulovna, J. M. (2018). Feelings of Artistic Expressions and Admittances. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(6), 80-83.
6. Jurayeva, M. KESIM VAZIFASIDAGI UNSURLARNING KVALIFIKATIV SINTAKSEMALARGA AJRATIB TAHLIL QILISH. Проблеми та перспективи розвитку науки на початку третього тисячоліття у країнах Європи та Азії, 116.
7. Inomov, S. (2022). UBAYDIY-RUBOIYNAVIS. OLIY VA O 'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 466.
8. Жўраев, Х., & Қосимов, А. (2022). 16. Хамидов Миролимбек Мансур ўғли, Сабирдинов Акбар Ғафурович, Ҳ. Жўраев, Орипова Гулноза Муродиловна, & СА Хўжаев.(2022, May 1)." ҚАЙҒУ ГУЛИ" ЁХУД ИЖОДКОР СИЙРАТИГА САЙР. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6523688>. OLIY VA O 'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 435.
9. Jo'rayev, H. A., & qizi Maxamadjonova, S. R. (2022). SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA AFORIZMLAR. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(7), 452-454.
10. Dehqonova, Maxsuma, & Qosimov, Iqboljon (2022). OYBEK DOSTONLARIDA MAVZULAR XILMA-XILLIGI VA OBRAZLAR TASVIRI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 317-322.
11. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. Theoretical & Applied Science, (2), 13-17.
12. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2022). "SHAVQI GULISTON" ASARI MATNINING TUZILISHI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 192-195.
13. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2023). "GULISTON" DAGI "FE'L MASDARI+GEREFTAN" MODELLI FE'L SHAKLLARI BORASIDAGI NAZARIY QARASHLAR. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 149-152.



14. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2023). **هـ(BE) PREFIKSI+ ISM+ YORDAMCHI FE'L MODELIDAGI QO 'SHMA FE'LLAR XUSUSIDA.** Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 382-386.
15. Odiljon o'g'li, U. D. (2023). **ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TANQIDIY MAQOLALARNING AHAMIYATI.**
16. Odiljon o'g'li, U. D. (2023). **ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR.** *IQRO*, 2(2), 777-785.
17. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). **AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHİYATIDAGI EVRILISHLAR.** Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-1322